



**KIMYO FANINI O`QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH
VA UNING SAMARADORLIGI**

Asranova Odina Abobakirovna

Namangan shahar, 25-o`rta maktabi kimyo fani o'qituvchisi:

Sadiqova Muxayyo Mo'minovna

125-maktab kimyo fani o'qituvchisi, Tabiiy fanlar metod birlashmasi rahbari:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6582153>

Annotasiya: Ushbu maqola “Kimyo fanini o`qitishda yangi pedagogic texnologiyalardan foydalanish va uning samaradorligi” mavzusida inovatsion texnologiyalar asosida kimyo fanini o`qitish metodikasiga asoslangan holda takomillashtirishni ochib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: kimyo, ta'lif-tarbiya, kadrlash tayyorlash milliy dasturi, konsepsiya.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev- “ta'lif-tarbiyani isloh qilish va uni rivojlantirish “Kadrlash tayyorlash milliy dasturi”ni amalga oshirish asosida yoshlarga zamon talabalari darajasida mos keladigan bilimlar bilan birga o'quvchi yoshlar ongida yuksak ma'naviy axloqiy fazilatlarni shakllantirish hamda ularning bilim salohiyatini yuksaltirish hozirgi kunning eng dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish uchun dastlabki yillaridan boshlab ta'lif-tarbiya sohasini isloh qilish natijasida to'plangan tajribalar va bir qator xulosalar asosida amaldagi ta'lif-tarbiya tizimimini hozirgi taraqqiyoti bilan kelgusidagi talablar darajasiga ko'tarish uni yanada takomillashtirishga jiddiy e'tibor berish zarurligini anglagan holda ta'lif O'zbekiston Respublikasi ijodiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e'lon qilindi.

Kimyo ta'lifi konsepsiyasiga muvofiq kimyo ta'lifininig yo`nalishi va maqsadi yosh avlodning kimyo fani asoslarini chuqur egallshi, o'quvchilarning siyosiy- g`oyaviy, estetik, ekalogik tarbiyasi, tabiatga va jamiyatga bo`lgan ijobiy munosabat, qadimda yashab ijod etib o'tgan buyuk mutafakkirlar keyingi yillarda olimlarimizning kimyo sohasidagi erishgan yutuqlariga oid yozuv materiallari bilan tanishtirib borish orqali vatanga bo`lgan e'tiqodni shakillantirish, kasbga yo`naltirish ko`zda tutiladi.

Kimyo-moddalar, moddalarning xossalari va ularning bir-biriga aylanishi to`g`risidagi fandir.

Kimyo murakkab fan bo`lganligi uchun uni o`quvchlarga yangi pedagogik texnologiyalar asosida tushuntirish qulayroq.



Yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish ko`lamini kengaytirish, bu yo`nalishda ilg`or tajribalarni tatbiq qilish, kimyo fani bo`yicha aniq rejalarini tuzish va amalga oshirish, darslik va o`quv qo`llanmalari hamda dasturlar va ma`ruza matnlarini elektron shaklini yaratish, o`quv-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik va axbotot texnologiyalarining keng joriy etilishiga erishish, ta`lim tizimini zarur axborot vositalari bilan etarli darajada ta`minlash ta`lim muassalarini kommunikatsion tarmoqlarga bog`lash kabi vazifalar mihim hisoblanadi.

Zamonaviy texnika va texnologiyalarni ta`limga tatbiq etish, ta`lim jarayonini kompyuterlashtirish o`quv-tarbiya jarayonida axborot texnologiyasi va texnik vositalardan foydalanish ta`lim samaradorligini oshiradi. Rivojlangan mamlakatlar qatoridan o`rin olish uchun aholi ta`limini jadallashtirish va samaradorlini oshirish maqsadida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarur.Yangi pedagogik texnologiya ma'lumotlarni o`zlashtirish uchun qulay shakl va usulda uzatish va o`zlashtirish jarayonidan iborat. Yangi pedagogik texnologiya o`quvchini mustaqil o`qishga, bilim olishga, mustaqil fikrlashga o`rgatishni kafolatlaydigan jarayondir.

Yangi pedagogik texnologiyalar o`quvchilar faoliyatining faollashtirish va jadallashtirilishiga asoslangan. Ular o`quvchilarga ijobiy imkoniyatlarni ro`yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.O`quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tatqiq qilish hisoblash, o`lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash axloq – odob o`rgatish, nutq o`stirish, til o`rganish, yangi bilimlarni oson o`zlashtirish va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirishga yordam beradi.Dars jarayonida didaktik o`yinlarning asosiy turlari intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o`yinlardan iborat. Bu o`yinlar o`quvchilarda aqliy – jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy tadbirdorlik, mehnat va boshqa ko`nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi . Bularning orasida didaktik o`yinlar ta`lim – tarbiya vazifalarini amalga oshirish imkoniyatini oshirib borishi bilan alohida o`ringa ega.

Har bir sohaning rivojlanishiga tabiiy fanlarning o`rni beqiyosdir. Shu

jumladan kimyo, matematika, biologiya, fizika fanlari hozirgi kungi rivojlanishlarning asosi ekanliginini ta`kidlashimiz lozim. Shunday ekan, kimyo fani qadimdan o`z o`rni va ahamiyatiga ega bo`lib kelgan. O`quvchilarning kimyo fanini chuqr o`zlashtirishi juda katta ahamiyatga egadir.



Hayotiy turmush tarzidan tortib rivojlanishning har bir jarayonini kimsosiz ta'savvur qilib bo'lmaydi. Kimyo fanini o'qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol usullardan foydalanish fanning yanada qiziqarli o'tilishi, o'qituchining mavzuni keng ko'lamda bat afsil bayon etishida katta ahamiyatga ega. Bu esa o'quvchini bilim samaradotligini oshirib, sifat ko'rsatkichini yuqori reytingda bo'lishini ta'minlaydi va xotirasini mustaxkamlaydi. O'quvchilarning bilim darajasini yanada yuksaltirish nafaqat dars jarayonlarida, balki qo'shimcha mashg'ulotlar, jumladan, to'garaklarini o'tish orqali yanada mustahkamlashga erishiladi. Albatta, bu bilan o'qivchilarning bilimi va iqtidorini tog'ri yo'naltirish bilan qiziqishini yanada ortishiga erishiladi. Yurtboshimiz tashabbusi bilan olib borilayotgan islohatlarda ta'lim sohasiga juda katta e'tibor berilmoqda. Jumladan, maktablarni qayta rekanstruksiya qilish va turli xil zamonaviy jihozlar bilan ta'minlanishi o'quvchi yoshlarni chet davlatlardan kam bo'limgan sharoitda bilim olibshga yaratilayotgan imkoniyatlar berilayotganidan darakdir. Kimyonni zamonaviy laboratoriya jihozlari bilan yanada boyitilishi o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishini ortirmoqda. Shunday ekan, yaratilayotgan sharoitni ko'rар ekanmiz, tom ma'noda dunyo bolalari bilan tengma-teng bellasha olishi uchun imkoniyat eshiklari keng ochilmoqda. Bu imkoniyatlarga shukronalik bildirish, har bir ota-onan farzandining qiziqishlarini alohida e'tiborga olishi zarurdir. Olayotgan ta'limini yonida turib har bir o'g'il qizi uchun kamarbasta bo'lmog'i darkor.

Amalga oshirilgan tahlillar natijasida maqolada mikrokredit tashkilotlari faoliyatini huquqiy tartibga solishga oid qonun hujjatlarini takomillashtirishga oid takliflar ishlab chiqiladi[5]. Ularning kelajagi yuksak bilimli, dono va aqli bo'libgina qolmay yurtning rivojlanishiga o'z hissasini qo'sha oladigan kadr bo'lib yetishadi. Har bir o'g'il qizning yutig'i eng avvalo ota-onaning yutig'idir. Shuni unutmaylik!

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 12.08.2020 yildagi PQ-4805-sod
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 13.02.2021 yildagi PQ-4992-sod. <https://lex.uz/docs/-5288160>
3. Ахмеров Қ., Жалилов А., Сайфутдинов Р. Умумий ва ноорганик кимё (дарслик). Тошкент: Ўзбекистон, 2003.
4. Umarov B. Organik kimyo (o'quv qo'llanma). Toshkent: Iqtisod – moliya. 2007.
5. Мадумаров, Т. Т. (2020). МИКРОКРЕДИТ ТАШКИЛОТЛАРИ: ХОРИЖ ОЛИМЛАР ТАҲЛИЛИ. Интернаука, (25-2), 43-45.